

## XURSHID DO‘STMUHAMMAD HIKOYALARIDA AYOL OBRAZINING PSIXOLOGIK TALQINI: “ISMSIZ IZTIROB” KONSEPSIYASI ASOSIDA TAHLIL

Mo‘ydinova Zarina Bahodir qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,  
o‘zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20448595>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek nasrining yetakchi vakillaridan biri Xurshid Do‘stmuhammad ijodida ayol obrazi talqinining psixologik-estetik xususiyatlari tadqiq etiladi va obyekt sifatida yozuvchining “Beozor qushning qarg‘ishi” (2006) to‘plamidan “Vasiy”, “Mahzuna” va “Beozor qushning qarg‘ishi” hikoyalari tanlangan. Z. Freyding “Id – Ego – Superego” psixoanalitik kategoriyalari va U. Jo‘raqulovning “ismsiz iztirob” konsepsiyasi milliy-madaniy kontekstda uyg‘unlashtirib qo‘llaniladi. Qiyosiy-tipologik, psixoanalitik va struktural tahlil usullari asosida X. Do‘stmuhammad poetikasida ayol qahramonning ichki holati bevosita nutq orqali emas, balki bilvosita belgilar: takroriy harakat, “begona manzil”ga qaratilgan murojaat, ramziy detal va ochiq yakun orqali ifodalanadi. Bu esa o‘zbek hikoyachiligida ayol obrazining an’anaviy funksional qoliplardan holi bo‘lgan yangi bosqichiga yo‘l ochadi.

**Kalit so‘zlar:** Xurshid Do‘stmuhammad, ayol obrazi, psixologik talqin, psixoanaliz, ismsiz iztirob, istioraviylik, milliy Superego, zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi, badiiy detal.

**Abstract.** This article examines the psychological-aesthetic features of female character interpretation in the works of Khurshid Dostmuhammad, one of the leading representatives of contemporary Uzbek prose. The research focuses on stories from his collection “Beozor qushning qarg‘ishi” (2006): “Vasiy”, “Mahzuna” and “Beozor qushning qarg‘ishi”. The study integrates Z. Freud’s psychoanalytic categories of Id–Ego–Superego with U. Jurakulov’s concept of “nameless suffering” within a national-cultural context. Through comparative-typological, psychoanalytic, and structural analysis, the article demonstrates that in Dostmuhammad’s poetics the female character’s inner state is expressed not through direct speech, but through repeated action, dialogue addressed to a “foreign destination”, symbolic detail, and open-ended conclusion. This principle marks a qualitatively new stage free from prefabricated functional frameworks in the interpretation of female characters in Uzbek short story tradition.

**Keywords:** Khurshid Dostmuhammad, female character, psychological interpretation, psychoanalysis, nameless suffering, metaphoricity, national Superego, contemporary Uzbek short story, artistic detail.

Zamonaviy o‘zbek nasrining badiiy-estetik takomilini belgilovchi omillardan biri qahramon ichki olamining tasvir tarzi. Ayniqsa, mustaqillik davri hikoyachiligida qahramon psixologiyasiga munosabat tubdan o‘zgardi: yozuvchilar voqea bayonidan ko‘ra kechinmani, ifodadan ko‘ra ishorani, izohdan ko‘ra detal vositasida his ettirishni afzal ko‘ra boshladilar. Shu jarayonda Xurshid Do‘stmuhammad ijodi alohida o‘rin tutadi. Uning hikoyalarida ayol qahramon o‘zbek nasri an’anasidagi “sabrli”, “fidoyi” obrazdan-da, o‘z ichki holatini hatto o‘zi ham to‘la anglab yetolmaydigan, murakkab va ziddiyatli ruhiyat egasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, o‘zbek adabiyotshunosligida ayol obrazining psixologik jihatdan tadqiq etilishiga doir muayyan tajriba to‘plangan bo‘lsa-da, mustaqillik davrining ko‘plab asarlari, shu jumladan, Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalari hozirga qadar izchil psixoanalitik yondashuv asosida o‘rganilmagan. Ayni vaziyatda Z.Freydning psixoanalitik kategoriyalari va U. Jo‘raqulov tomonidan ilgari surilgan “ismsiz iztirob” konsepsiyasi vositasida yondashish muayyan ilmiy zarurat sifatida yuzaga chiqadi.

Badiiy adabiyotda psixologik tahlil tarixi Aristotelning “Poetika”sidagi katarsis tushunchasidan boshlanib, XIX asr oxirida Z. Freydning psixoanaliz nazariyasida har jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Freyd o‘zining “Ijodkorlik va xayolparastlik” (1908) ishida badiiy ijod ham, uning o‘quvchiga ta‘siri ham qoniqtirilmagan istaklar va ong osti jarayonlari bilan bog‘liq ekanligini asoslab berdi<sup>1</sup>. Bu yondashuv adabiy qahramon xatti-harakatini syujet doirasidan tashqariga ya‘ni ichki, anglanmagan qatlamga olib chiqish imkonini berdi.

Ammo psixoanalizni klinik amaliyotdan adabiy matnga ko‘chirishda muhim metodologik masala tug‘iladi: tahlil obyekti muallif shaxsini yoki badiiy obrazmi? O‘zbek adabiyotshunosligida bu masalaga U. Jo‘raqulov “Hududsiz jilva” monografiyasida aniq javob bergan: “Adabiyot psixoanalizga nisbatan ham obyekt, ham subyekt vazifasini bajaradi.

Adabiyotni psixoanaliz obyekti sifatida qaraganimizda, psixoanaliz nazariy adabiyotshunoslikning bir tadqiq usuli o‘laroq uning tarkibiy qismiga aylanadi”<sup>2</sup>. Shu metod asosida biz Xurshid Do‘stmuhammadning shaxsiy psixologiyasini emas, uning hikoyalaridagi Juvon, Mahzuna, Joziba, Qadriya onasi kabi badiiy obrazlarning ichki olamini tahlil qilamiz.

Freyd tizimining markaziy kategoriyasi – Id, Ego va Superego uchligi. U. Jo‘raqulov izohiga ko‘ra, “Id insonning genetik, biologik; Ego individual-shaxsiy tajribalari, Superego esa o‘zgaralar (oila, ijtimoiy muhit)ning ta‘siri sifatida vujudga keladi... Id sof biologik, Superego sof ijtimoiy asosga ega bo‘lsa, Ego ham biologik, ham ijtimoiy omillarga ega bo‘lgan tushuncha hisoblanadi”<sup>3</sup>. Ayni yondashuv adabiy qahramon harakatini “nima qildi?” emas, “nimani istadi (Id), nimani qila olardi (Ego), nimani qilishi “kerak” edi (Superego)” uchligi orqali izohlash imkonini beradi.

Biroq Freyd ta‘limotining universal ko‘rinishda qo‘llanilishi o‘zbek adabiy matniga nisbatan jiddiy cheklanish berishi mumkin: Superego kategoriyasi Yevropa axloqiy normalari asosida shakllantirilgan. U. Jo‘raqulov kuzatganidek, o‘zbek ayolining Superegosini boshqacha mazmun kasb etadi: “O‘zbek oyim doimiy qo‘llab yuradigan “kafshim ko‘chada qolgan emas” iborasining o‘zi ayollar jamiyati ichida samarali psixologik funktsiya bajaradi”<sup>4</sup>. Demak, tizim bir xil, lekin uning mazmun-mohiyati millat, tarix va madaniyat bilan shakllanadi. Shu bois mazkur tadqiqotda Freyd kategoriyalari va o‘zbek milliy-madaniy filtrining birlashgan metodologiyasi qo‘llaniladi.

Hikoya tahlilida yana bir muhim nazariy poydevori – U. Jo‘raqulovning “ismsiz iztirob” konsepsiyasidir: “Inson ichki iztiroblari eng ko‘p foizi mavhum va notayin tuyg‘ularning ko‘z

<sup>1</sup>Freyd Z. Ijodkorlik va xayolparastlik // Psixoanaliz va badiiy ijod. – Toshkent, 2008. – B. 4.

<sup>2</sup>Jo‘raqulov U. Hududsiz jilva. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 54.

<sup>3</sup>Jo‘raqulov U. Hududsiz jilva. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 42.

<sup>4</sup>Jo‘raqulov U. Hududsiz jilva. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 175–176.

ilg'amas turlari bilan bog'liq. Turmush tashvishlariga bandi odam avlodi aksariyat bunday holatlarni anglashga, tushunib yetishga urinmaydi ham"<sup>5</sup>. Do'stmuhammad hikoyalaridagi ayol qahramonlar aynan mana shu "ismsiz iztirob" bilan yashaydi, his qiladi, ammo nomlay olmaydi, azob chekadi, ammo sababini tushuntira olmaydi. Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida Kumushning "Men roziman, men ko'ndim" javobidagi "azaliy mantiqni daf'atan Otabekkina emas, hatto Kumushning o'zi ham anglay olmaydi"<sup>6</sup>, deb yozadi Jo'raqulov. Bu o'zbek nasrida ayolning ichki holati ilk marta "g'ayrushuuriy tarzda ifoda etilgan" nozik ishoralardan biri. Do'stmuhammad ushbu an'anani bir qadam narigi bosqichga, aniq badiiy tadqiqot obyekti darajasiga ko'taradi.

Xurshid Do'stmuhammad hikoyalarida ayol obrazida birinchi navbatda diqqatni tortadigan xususiyati qahramonning hech qachon o'z his-tuyg'ularini bevosita ifodalamasligi. Juvon gapirmaydi, u qo'lini tinmay yuvadi. Mahzuna aytmaydi, u yig'laydi. Joziba tushuntirmaydi, u "ko'nglim yomon ayniyapti", deydi. Qadriyaning onasi izohlamaydi, u bir og'iz "Xo'p" deydi va qaldirg'och uyasini saqlashga intiladi.

Aynan mana shu "bevosita aytmaslik" Do'stmuhammad poetikasining asosiy tamoyilini tashkil etadi: ayolning ichki holati bevosita nutq orqali emas, balki boshqa yo'llar orqali ifoda etiladi. Birinchisi, tashqi harakatning ichki holat o'rmini bosishi; ikkinchisi, his-tuyg'uni "begona manzil" ga yo'naltirish; uchinchisi, hikoyaning ochiq yakunlanishi. "Vasiy" hikoyasida bir kecha va bir tong mobaynidagi voqeani tasvirlaydi. Tashqi qarashda bu kecha voqeasiz o'tadi: Juvon hovli supuradi, qo'lini yuvadi, narvonga chiqadi, yana qo'lini yuvadi.

Tuni xayolan bolasi bilan gaplashadi. Tongda ukasiga ko'rpa yopib, "Men yaxshi bo'lib qoldim", deydi. Boshdan oxirigacha bitta voqea yo'q – aynan mana shu "voqeasizlik" hikoyaning badiiy kashfiyotidir.

Qahramonning psixologik holati takroriy harakat orqali ifodalanadi: "Qo'lini sovunladi, yuvdi-sovunladi, yuvdi-sovunladi, sovunladi-yuvdi... Suv kamaysa-da, to'xtamadi, ko'ngli joyiga tushmagan juvon"<sup>7</sup> (86-b.). "Sovunladi-yuvdi" so'zlarining tartibi almashadi, harakat takrorlanadi, lekin natija o'zgarmaydi. Juvonning "kir"i qo'lida emas, u ichida, ruhiyatida, lekin u hovli supurish, toza derazani artish harakatlarida ham kuzatiladi. Uzoq Jo'raqulov qayd etgan "ismsiz iztirob" Juvon tomonidan harakatga aylantiriladi, shu orqali chiqariladi: u nomlay olmagan tuyg'u farzandini sog'inish hissi. Psixoanalitik nuqtai nazardan, Juvon obrazida uchala kuchning – Id, Ego va Superegoning birdan to'qnashuvi, ziddiyati kuzatiladi. Uning "Id"i – farzand sog'inchi va ona bo'lish istagini ifodalaydi (xayoliy bola bilan dialog). Superego – bolalarni "olib qo'ygan" jamiyat (hikoyada "ular" sifatida nomlangan). Ego esa bu ikki kuch o'rtasida chiqish topa olmay, takroriy harakatga qochadi. Aynan shu bois qo'l yuvish harakati sof psixologik vazifani bajaradi: u to'xtasa, iztirob yuzaga chiqadi.

Hikoyaning eng kuchli badiiy topilmasi xayoliy bola bilan dialog hisovlanadi. Juvon hech kimga ayta olmaydigan barcha gaplarini shu xayoliy go'dakka aytadi: "Ne-echta tug'dim-a!..

<sup>5</sup>Jo'raqulov U. Hududsiz jilva. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 180.

<sup>6</sup>Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2015. – B. 171.

<sup>7</sup>Do'stmuhammad X. Beozor qushning qarg'ishi: Hikoyalar. – Toshkent: Sharq, 2006. – B. 86. (Keyingi iqtiboslar shu nashrdan, sahifa qavs ichida berildi.)

Tug‘aman, ular olib qo‘yaverishadi. Ozmunchasini yo‘qotdimmi?! Seni bermayman” (90-b.). Gaplarning manzili mavjud bo‘lmagan taxmonga yashirilgan bo‘sh yo‘rg‘ak. Ammo o‘quvchi uchun aynan shu mavjud bo‘lmagan manzilga aytilgan gaplar eng haqiqiy, eng to‘g‘ri his-tuyg‘u ifodasidir. K. Hamrayev bunday tuzilishni “dialogik nutqning birinchi planga chiqarilishi”<sup>8</sup> sifatida ta’riflaydi: Juvonning o‘z-o‘zi bilan dialogi asar kompozitsiyasining harakatlantiruvchi kuchiga aylandi.

Mavjud odamga, xonada uxlab yotgan ukasiga, Juvon tong otgach faqat uch so‘z aytadi: “Joyingga kirib uxla, ukam. Men tuzukman... Men yaxshi bo‘lib qoldim” (93-b.). Haqiqiy odamdan barcha narsa yashiriladi, mavjud bo‘lmagan obrazga barcha narsa aytiladi. Aynan mana shu paradoks, gaplarning “noto‘g‘ri” manzilda eng to‘g‘ri ifodalanishi, yozuvchining psixologik mahoratini namoyon qiladi.

“Mahzuna” hikoyasidagi psixologik ziddiyatning mohiyati esa boshqacha: Mahzuna xayoliy shaxs bilan emas, o‘zining ikki ovozi: ichki va tashqi o‘rtasida kurashadi.

Mehmondorchilikda u ichida barcha narsani aytadi: “Mehmondorchiligi qurib ketsin-a!..

Xotinini bir uy erkak oldiga qo‘ltiqlab bormasa, uyat emish!..” (126-b). Tashqarida esa faqat “tortinib-tortinib”, “yer ostidan xo‘mrayib” o‘tiradi (127-b). Ikki ovozning qarama-qarshi yo‘nalishi – Mahzunaning psixologik holatini to‘la ifodalaydi.

Hikoyaning kulminatsion nuqtasi esa Bo‘ri Sobitovich paltosi voqeasi hisoblanadi.

Mahzuna rad qilolmaydi (odob yuzasidan), qabul qilolmaydi (ichi tatalab ketadi). Natija jismoniy talvasada ifoda topadi: “Talvasaga tushdi, azbaroyi tipirchilab qoldi, o‘zini u yon-bu yonga tashlagan edi, oyoq ostidagi tufli-etiklarni bosib-tepkilab yubordi, muvozanatini yo‘qotib yiqilay dedi” (131-b). U ochiq ayta olmaydi lekin tanasi va harakatlari gapiradi. Bu o‘zbek hikoyachiligida “somatik psixologizm” deb nomlash mumkin bo‘lgan hodisa namunasi: ruhiy bosim jismoniy talvasa orqali ko‘rinadi.

Hikoyadagi badiiy topilmalardan yana biri uzun, bo‘linmas jumla: “Tilini tishladi, chidadi... taksiga o‘tirib uyiga yetib kelguniga qadar... qo‘shnisinikida uxlab qolgan qizalog‘ini bag‘riga bosib uyiga olib chiqquniga qadar... vannaxonaga o‘tib suvni oxirigacha sharillatib burganiga qadar... chidadi, tilini tiydi” (132–133-b.). Jumladagi “qadar” so‘zining yetti marta takrorlanishi bardoshning yetti bosqichi. Jumla to‘xtamaydi, Mahzuna ham to‘xtamaydi. Aynan shu sintaktik cho‘zilish “bardosh” psixologiyasini bevosita tasvirlash o‘rniga uning shakl-strukturasi orqali o‘quvchiga bevosita his qildiradi. Aynan shu orqali o‘quvchi psixologiyasiga ham ta’sir ko‘rsata oladi.

Hikoyaning kutilmagan yakuni telefon jiringlaydi, Mahzuna onasining ovozini eshitadi.

Biroq onasi “qizalog‘i tug‘ilgan yili vafot etgan” (135-b.). Demak, ovoz haqiqiy emas, lekin Mahzuna uni taniydi. Aynan mana shu yakun hikoyaning butun kalitini beradi: Mahzuna tuni bo‘yi ko‘rgan, chidagan, yig‘lagan barcha narsasi shu bitta vafot etgna inson ovozi uchun edi.

Uning yolg‘izligi, ona sog‘inchi so‘zlar bilan emas, mana shu xayoliy telefon qo‘ng‘irog‘i orqali ifoda etiladi.

---

<sup>8</sup>Hamrayev K.O‘. Hozirgi o‘zbek hikoyasida kompozitsiya poetikasi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. autoreferati. – Toshkent, 2018. – B. 13.

“Beozor qushning qarg‘ishi” hikoyasi. Ushbu hikoyada ayol obrazi, Qadriyaning onasi milliy-madaniy qadriyatlar bilan oilaviy munosabatlar o‘rtasidagi to‘qnashuv tarzida tasvirlanadi.

Ona qaldirg‘och uyasini saqlash uchun kuyadi: “Mani urib oling, adasi, roziman. O‘ldiring. Faqat qaldirg‘ochni iniga tega ko‘rmang!” (288-b.). Bu gapda onaning butun qadriyatlari aks etgan: qaldirg‘och uyasi – yangi hayotning ramzi, oilaviy baxt va barakatning belgisi.

Muhim bir psixologik detal o‘zbek ayolining, hikoyadagi onaning bitta so‘zi: “Xo‘p”.

Qadriya xotiralaydi: “Onamning qo‘rquv va tahluka, qattol qaysarlik oldidagi ojizlik va umid to‘la ovozlari hali-hanuz qulog‘imdan ketmaydi”. Ushbu bitta “Xo‘p” ichida qo‘rquv, tahdid, ojizlik va umid kabi hislar jamlangan. Birgina so‘z, lekin uning ortidagi psixologik holatlar ko‘p. Bu yozuvchi uslubining ajoyib namunasi: bir so‘z yordamida butun bir psixologik holatni ochib berish.

Qaldirg‘och uyasi buzilgandan keyingi tasvir ham yozuvchining eng kuchli badiiy topilmalaridan biridir: “Butun vujudlari ko‘zga aylanib – qaldirg‘ochning uyasini tomon qarashga intildilar”. “Butun vujudlari ko‘zga aylanib” ifodasida onaning butun e‘tiqodi, iymoni, kurashi va fidoyiligi bir lahzada qulashining badiiy ifodasi berkingan. U ichkaridan yemiriladi, zil ketadi va bu yemirilish tashqi harakatlarga, ko‘zga aylangan tanaga, ko‘chadi.

Hikoyaning psixoanalitik jihati – milliy Superego va oila Superegosining to‘qnashuvi. Ona uchun qaldirg‘och uyasi muqaddas (milliy-madaniy Superego), ota uchun esa u shovqin va uydagi tartibsizlik (ratsional-individual Superego). Bu to‘qnashuvda o‘zbek oilasida erkak kishining aytgani yakuniy nuqta, oxirgi nuqta ekanligi yoritiladi. Biroq bu yakun fojiali: uya buziladi, uch oy o‘tgach esa Zulfiyaning oilasi. Yozuvchi biror sabab ko‘rsatmaydi, ammo hodisalar izchilligini shu tarzda boradiki, hamma uchun bu vaziyat tushunarli bo‘ladi. Qadriyaning so‘zlari bu ziddiyatning kaliti: “Chunki, orada dadam ham, onam ham tushunmayotgan, tushunsalar-da, izohlab bera olishmayotgan nimadir bor edi” (291-b.).

Ushbu hikoyalarning psixologik-estetik tahlilida, barcha hikoyalarda ayol qahramon o‘z his-tuyg‘ularini bevosita nutq orqali ifodalamaydi, ifoda takroriy harakat (Juvonning qo‘l yuvishi, Mahzunaning idish artishi), xayoliy yoki ramziy manzilga yo‘naltirilgan gap (Juvon – xayoliy bola, Qadriya onasi – qaldirg‘och), jismoniy harakat, reaksiya (Mahzunaning talvasasi, Jozibaning o‘qchishi) va sukut (Qizning butunlay gapirmasligi) orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, barcha hikoyalar ochiq yakun bilan tugaydi, hech birida ruhiy ziddiyat to‘la hal bo‘lmaydi. Juvon tongda “Men yaxshi bo‘lib qoldim” deydi, lekin ertasi kuni yana shu hayot boshlanishi kutiladi. Mahzuna vannada yig‘ladi, biroq telefon qo‘ng‘irog‘i uning iztirobini yangi darajaga ko‘chiradi. Jozibaning “ko‘nglim ayniyapti” degan jumlasini ortidagi ma‘no ham izohsiz qoldiriladi. Qadriyaning savoli (“Chunki nimadir bor edi”) javobsiz. Bu ochiqlikning o‘zidan ma‘lumki, yozuvchi ayol iztirobini “hal qilish” emas, uning mavjudligini his ettirishni asosiy o‘ringa olib chiqadi.

Milliy-madaniy qadriyatlar tizimi bilan bog‘liq holda ham ayollar obrazi tasvirlanadi.

Mahzunaning “tishini tishiga qo‘yish”i – or-nomusning badiiy ifodasi: “kafshim ko‘chada qolgan emas” instinkti. Jozibaning “ishda”, “uyda” kabi holatlari esa kasbiy-axloqiy chegara hisoblanadi. Qadriyaning onasida qaldirg‘och uyasiga munosabat – milliy ruhiy-e‘tiqodiy qarashlarning namunasi.

Bu qahramonlar orqali Do'stmuhammad o'zbek ayolining psixologik portretini turli xil tarzda yaratadi. Xurshid Do'stmuhammadning hikoyalarida har bir ayol obrazi muayyan ramziy detal atrofida bo'ladi: Juvon – qo'l va qo'l yuvish, Mahzuna – uzun jumlar va vannaxona, Joziba – moviy parda orti, Qadriyaning onasi – qaldirg'och uyasi, Qiz – oqimga qarshi oqqan guldasta.

Bu detal-ramzlar nafaqat hikoyaning syujet asosini tashkil etadi, balki ayol psixologiyasining vazifadosh aks ettiruvchisiga aylanadi.

Xurshid Do'stmuhammad hikoyalaridagi ayol obrazi – o'zbek hikoyachiligida yangi badiiy-psixologik bosqich hisoblanadi. Yozuvchi ayolga hech qanday oldindan tayyor vazifa (ramziy timsol, ijtimoiy qahramon, mafkuraviy obraz) yuklamaydi. U ayolni shunchaki yashayotgan, his qilayotgan, ammo his qilayotganini izohlay olmayotgan inson sifatida tasvirlaydi. Aynan mana shu "vazifasizlik" ayol obrazining yangi g'oyaviy-badiiy maqomi.

Psixoanalitik kategoriyalar (Id, Ego, Superego) X. Do'stmuhammad hikoyalariga nisbatan qo'llanilganda muayyan milliy-madaniy yondashuv zarur: o'zbek ayolining Superegosi Yevropa axloqiy normalari emas, milliy-madaniy – or-nomus, ona mehri, fidoyiligi, oila muqaddasligi, "el ko'zi" kabi tushunchalar asosida shakllanadi. Ayni ikki tizimning, universal psixoanalitik va milliy-madaniy birlashmasi mazkur mavzuni tadqiq etishning eng samarali metodologik modeli sifatida namoyon bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Xurshid Do'stmuhammad. Beozor qushning qarg'ishi: Hikoyalar. – Toshkent: Sharq, 2006. – B.512.
2. Freyd Z. Vvedenie v psixoanaliz. – M.: Nauka, 1989. – S.456.
3. Jo'raqulov U. Hududsiz jilva. – Toshkent: Fan, 2006. – B.196.
4. Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari: muallif, janr, xronotop. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2015. – B.364.
5. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – B.144.
6. Qo'shjonov M. Saylanma. 2-jild. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1983. – B.432.
7. Hamrayev K.O'. Hozirgi o'zbek hikoyasida kompozitsiya poetikasi: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2018. – B.52.
8. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – B.272.
9. Aristotel. Poetika. Tarj. A. Irisov. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1980.
10. Freyd Z. Psixoanaliz va badiiy ijod .